

“TASDIQLAYMAN”
Iqtisodiy taraqqiyot va
kambag‘allikni qisqartirish
vazirining birinchi
o‘rinbosari,
Kengash raisi

I. Norqulov

2021-yil

” 09-august ”



O‘zbekiston Respublikasi

Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligining “Milliy iqtisodiyotning ma’naviy asoslari” mavzusidagi maqolalar tanlovi NIZOMI

1-bob. Umumiy qoidalar

1. “Milliy iqtisodiyotning ma’naviy asoslari” mavzusidagi maqolalar tanlovi (keyingi o‘rnarda – tanlov deb yuritiladi) Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi tomonidan tasdiqlangan hamda Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi bilan kelishilgan “Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi tizimida ma’naviy-ma’rifiy ishlarning yangi tizimini yaratish bo‘yicha 2021-yil uchun “Yo‘l xaritasi”ga muvofiq tashkil etilgan.
2. Ushbu Nizom tanlovnini tashkil etish va o‘tkazish tartibini belgilaydi.
3. Tanlovnini tashkil etish va o‘tkazish ixtiyorilik, oshkoraliq, xolislik, tenglik tamoyillariga asoslangan holda amalga oshiriladi.
4. Tanlov shartlari, uning o‘tkazilish jarayoni va natijalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar vazirlikning www.mineconomy.uz rasmiy saytida “**Ona tilimiz – o‘zligimiz bayoni**” rukni orqali yoritiladi.
5. Vazirlikning Ma’naviyat va ma’rifat Kengashi tanlovnini tashkil etish va o‘tkazish uchun mas’ul hisoblanadi.

2-bob. Tanlovnинг мақсади ва vazifalari

6. Tanlov O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlarning tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 26-martdagي PQ-5040-son qarori va Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi tomonidan tasdiqlangan hamda Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi bilan kelishilgan “Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi tizimida ma’naviy-ma’rifiy ishlarning yangi tizimini yaratish bo‘yicha 2021-yil uchun

“Yo‘l xaritasi”ga muvofiq tashkil etilib, vazirlik xodimlarining ma’naviy savodxonligini oshirish, davlat tilida ish yuritish bo‘yicha ko‘nikmalarini shakllantirish hamda ularning iqtisodiy bilim va malakalarini rivojlantirishdan iborat.

7. Yangi O‘zbekistonning iqtisodiyotini taraqqiy ettirishda ikki asosiy ustun - kuchli iqtisodiyot va kuchli ma’naviyatga tayanib, ularning o‘zaro uyg‘unligini ta’minlab faoliyat olib borish tanlovnинг asosiy maqsadi hisoblanadi.

8. Ushbu tanlovnинг maqsadidan kelib chiqib, quyidagi vazifalarni amalga oshirish nazarda tutilgan:

- vazirlik tizimida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish;
- xodimlarning davlat tilida ish yuritish bo‘yicha ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- vazirlik tizimida faoliyat olib borayotgan iqtidorli xodimlarni munosib taqdirlash, ularning amaliy ishlanmalarini yoritish.

3-bob. Tanlovni o‘tkazish tartibi

9. Tanlovda vazirlik tizimida ish tajribasiga hamda jamoa o‘rtasida obro‘ga ega, mehnat jamoasida sog‘lom ma’naviy muhitni yarata oladigan, keyingi bir yil davomida o‘z yo‘nalishida muayyan natijalarga erishgan, o‘z kasbining fidoyisi, yetakchi, tashabbuskor va ijodkor bo‘lgan xodimlar ishtirok etishlari mumkin.

10. Tanlovda qatnashish istagini bildirgan xodimlar “Milliy iqtisodiyotning ma’naviy asoslari” mavzusida maqola yozib, uni joriy yilning 23-avgustiga qadar onabijonov@mineconomy.uz elektron manziliga orqali yuborishlari talab etiladi.

11. Tanlovga taqdim etiladigan maqolalar umumiy hisobda 5-6 bet hajmda, Microsoft Office Word dasturida, Times New Roman 14 shriftda, 1,5 intervalda rasmiylashtirilishi lozim.

4-bob. Tanlov materiallarini baholash

12. Tanlovga yuborilgan maqolalar hakamlar hay’ati tomonidan **100 ballik** tizimda, quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

- 1) Iqtisodiyot va ma’naviy uyg‘unligini yoritish – **40 ball**;
- 2) “Kuchli iqtisodiyot va kuchli ma’naviyat” atamasini izohlash – **30 ball**;
- 3) “Yangi O‘zbekistonni barpo etishda milliy iqtisodiyotimizning ma’naviy asoslarini tahlil etish – **30 ball**.

5-bob. Tanlov g‘oliblarini taqdirlash

13. Tanlovga yuborilgan hamda hakamlar hay’ati tomonidan yuqori baholangan 3 ta maqola mualliflari quyidagi miqdordagi pul mukofotlari va I, II, III darajali diplomlar bilan taqdirlanadi:

1-o‘rin – 5 mln so‘m;

2-o‘rin – 3 mln so‘m;

3-o‘rin – 2 mln so‘m.

6-bob. Yakuniy qoidalar

14. Vazirlikning Ma’naviyat va ma’rifat Kengashi tanlovga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazishda yagona ilmiy-uslubiy yondashuvni, ochiqlik va shaffoflikni ta’minlaydi, hakamlar hay’ati tarkibini tasdiqlaydi hamda tanlov materiallari haqqoniy baholanishi ustidan nazoratni olib boradi.

15. Tanlov Nizomiga rioya qilmagan ishtirokchilar hakamlar hay’ati qarori bilan tanlovdan chetlashtiriladi.

16. Tanlov faoliyatini tashkil etish va o‘tkazish bilan bog‘liq nizolar qonunchilikda belgilangan tartibda hal etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi
Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligida
“Milliy iqtisodiyotning ma’naviy asoslari” mavzusidagi maqolalar tanlovini
yuqori saviyada tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha
hakamlar hay’ati tarkibi

T/r	F.I.Sh.	Lavozimi
1.	I.I. Norqulov	Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirining birinchi o‘rinbosari, hakamlar hay’ati raisi
2.	O.A. Maxmudov	Vazirning ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioiya etilishini ta’minalash masalalari bo‘yicha maslahatchisi v.v.b., hakamlar hay’ati raisi o‘rinbosari
3.	S.Q.Qo‘ychiyev	Yuridik departament direktori o‘rinbosari, huquqiy ta’minot bo‘limi boshlig‘i Hakamlar hay’ati a’zosi
4.	G.A. Melibayeva	Inson resurslari va kadrlar salohiyatini rivojlantirish bo‘limi boshlig‘i, hakamlar hay’ati a’zosi
5.	D.S. Jurayeva	Axborot xizmati boshlig‘i, hakamlar hay’ati a’zosi